JIZZAX VILOYATI YANGIOBOD TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 30 - oktabr 143-3-54-Q/23 Yangiobod tumani hokimligi

“Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari”ni 2024-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktyabrdagi “Aholini bandligi to‘g‘risida”gi 642-sonli Qonunining 9-bobi, 39-moddasi, “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari”ni ishga joylashtirish bo‘yicha qo‘shimcha kafolatlari”ga asosan Yangiobod tuman hududidagi korxona va tashkilotlarda 2024-yil mobaynida aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun 28 ta ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini bandligi to‘g‘risida”gi 642-sonli Qonunining 9-bobi, 39-moddasiga asosan, “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari”ni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risidagi Qonunga asosan, tashkilotlarning ro‘yxatdagi hodimlari o‘rtacha soni yigirma nafar kishidan ortiqni tashkil etadigan korxona, tashkilot va muassasalarda xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha sonining 7 foiz miqdorigacha, (shu jumladan, nogironlar uchun 3 foiz) jami 28 ta ish o‘rinlarini zahiralash ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini bandligi to‘g‘risida”gi 642-sonli Qonunining 9-bobi, 39-moddasiga asosan, “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari”ni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risidagi Qonunga asosan, korxona va tashkilotlarda joriy yilda ishga joylashtirib bo‘lingan shaxslar ish o‘rinlari 2024-yil uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlari sonini belgilashda hisobga olinsin.

Shu jumladan:

a) 14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg`iz otaga yoki onaga, shuningdek ko`p bolali, ota onalar uchun 7 foiz (3 kishi);

b) Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, ta'lim tashkilotlarini kasb-xunar maktablarini, kasb-xunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lmagan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari asosida ta'lim olgan bitiruvchilari uchun 10 foiz (18 kishi);

v) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 7 foiz (2 kishi);

d) pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 7 foiz (2 kishi);

y) jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun, 7 foiz (1 kishi);

j) odam savdosi qurbonlari uchun 7 foiz (1 kishi)

z) nogironligi bulgan shaxslar uchun 3 foiz (1 kishi)

3. Shaxslarning ko‘rsatib o‘tilgan toifalari uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta'minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

4. Ish o‘rinlari zahiraga qo‘yiladigan har bir korxona, tashkilot va muaasasalarda kasblar va lavozimlar ro‘yxati keltirib o‘tilsin.

5. Korxona, tashkilot va muassasa rahbarlari yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun muhtojlar uchun zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zahiraga qo‘yilishi va tayyorligini ta'minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Aholining bandligiga ko‘maklashish markazini xabardor qilishi shart.

6. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zahiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta'minlanadi, bu haqda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan

kechikmay xabardor qilinsin.

7. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etilsin.

8. Ushbu qarorni bajarmagan tashkilotlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy jarima solinadi.

9. Belgilab qo‘yilsinki, mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha qarorini bajarmaganlik uchun jarimani to‘laganlik tashkilotni band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini tashkil etishdan ozod qilmaydi.

10. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etilgan taqdirda ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida haq to‘lash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi PQ–4227-son 1 bob, 2 bandi. Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanishi belgilansin.

11.Tuman hokimligi axborot xizmati (D.Rajabov), “Yangiobod ovozi” tahririyati (A.Muhammadiyev), mazkur qaror hokimlikning www.yangiobod.jizzax.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin hamda mahalliy matbuotda chop etilsin va uning ijrosi bo’yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

12.Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bir hafta muddatda ushbu qarorni ilovada ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va mazkur qarorning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

13. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

14.Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2022-yil 17-noyabrdagi 241-3-54-Q/22-sonli qarori 2024-yil 01-yanvardan o’z kuchini yo’qotgan deb hisoblansin.

15. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi birinchi o‘rinbosari R.Abdug’aniyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **I.B.Qarshiboyev**

Yangiobod tuman hokimining
2023-yil 30-oktabrdagi
143-3-54-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tuman hudidida joylashgan korxona tashkilot va muassasalarda 2023-yil uchun kvota ish o‘rinlarini belgilanishi kerak bo`lgan eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni o‘rganish maxsus komissiyasi

TARKIBI

1	**R.Abdug‘aniyev**	-	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari **komissiya raisi**
2	**L.Raxmatov**	-	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i **komissiya raisi o‘rinbosari**
3	**Sh.Rayimova**	-	Tuman hokimining o‘rinbosari oila va xotin qizlar bo‘limi boshlig‘i komissiya a’zosi
4	**Y.Sharofboyev**	-	Tuman statistika bo‘limi boshlig‘i komissiya a’zosi
5	**N.Quvondiqova**	-	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining ishga joylashtirish va ishsizlarni xisobga olish bo‘yicha bek ofis bosh mutaxassisi, **komissiya kotibi**

Yangiobod tuman hokimining
2023-yil 30-oktabrdagi
143-3-54-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Yangiobod tumani hududida joylashgan, tashkilot va muassaslarda mehnat bozorida raqobatlashishga qodir bo'lmagan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarga 2024-yil uchun belgilangan (barpo etiladigan) ish o'rinlari

R O' Y X A T I

T/r	Korxona va tashkilotlar nomi	INN	01.08.2023 yil holatiga ro'yxat bo'yicha ishlovchilar soni	Shundan		2024 yilda yaratiladi	Shundan ijtimoiy ximoyaga muxtoj shaxslari						
				7%	3%		14 yoshgacha va nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz va ko'p bolali ota onalar uchun band qilingan ish o'rinlar soni	Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarinining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respblikasi saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Jazoni ijro etish o'tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburiy choralari qo'llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Odam savdosi qurboni uchun band qilingan ish o'rinlari soni
1	Tuman tibbiyot birlashmasi	202959888	587	13	1	14	2	5	2	1	2	1	1
2	SEOM	202987394	26	1		1		1					
3	Yangiobod tumani kasb-hunar maktabi	200970394	48	1		1		1					
4	Maktabgacha va maktab talimi bo'limi	207123120	44	1		1		1					
5	7- umumiy o'rta ta'lim maktabi	206877419	39	1		1		1					
6	8- umumiy o'rta ta'lim maktabi	206877426	42	1		1		1					
7	9- umumiy o'rta ta'lim maktabi	206877434	47	1		1		1					
8	10- umumiy o'rta ta'lim maktabi	206877441	34	1		1		1					
9	1-sonli DMTT	207057306	38	1		1		1					
10	2 -sonli DMTT	305268453	39	2		2	1	1					
11	4-sonli DMTT	305225578	30	1		1		1					
12	5 -sonli DMTT	305213054	28	1		1		1					
13	8 -sonli DMTT	207305123	28	1		1		1					
14	10 -sonli DMTT	310042299	23	1		1		1					
JAMI			**1053**	**27**	**1**	**28**	**3**	**18**	**2**	**1**	**2**	**1**	**1**